O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI

MINISTRY OF HEALTH OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN
TASHKENT MEDICAL ACADEMY

100109, Toshkent sh., Farobiy ko‘chasi -2-uy. Tel.: (+998-78) 150-78-25, (+998-71) 214-83-11 Fax: (+998-78) 150-78-28
Website: www.tma.uz, e-mail: info@tma.uz

2025 yil "10" iyun
416-son

Toshkent tibbiyot akademiyasi Ilmiy kengashi yig‘ilishining
10-sonli BAYONI

Toshkent shahar «28» may 2025-yil

Raislik qiluvchi: Sh.A.Boymuradov Toshkent tibbiyot akademiyasi rektori, professor

Qatnashdilar: Toshkent tibbiyot akademiyasining Ilmiy kengashi a’zolari (ro‘yxat bo‘yicha)

KUN TARTIBI

1. Toshkent tibbiyot akademiyasi jamoasi tomonidan 2024-2025 o‘quv yilida olib borilgan ma’naviy – ma’rifiy ishlar holati, muammolar, yechimi.

Ma’ruzachi – Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektori Bobomuratov Turdikul Akramovich.

2. 1-davolash fakulteti hisoboti.

Ma’ruzachi – 1-davolash fakulteti dekani Otajonov Ilxom Otabaevich.

3.Dissertatsiya, monografiya, o‘quv-uslubiy ishlar mavzularini va ilmiy-tadqiqot ishlar natijalarini amaliyotga tatbig‘ini tasdiqlash.

Ma’ruzachilar – O‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i Azizova Feruza Xusanovna, Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i Muminova Ziyoda Abrarovna.

4.Turli masalalar.

Kun tartibi ovozga qo‘yildi va bir ovozdan maqullandi.

Q A R O R Q I L A D I :

1. Kun tartibining birinchi masalasi bo‘yicha “Toshkent tibbiyot akademiyasi (keyingi o‘rinlarda – Akademiya) jamoasi tomonidan 2024-2025 o‘quv yilida olib borilgan ma’naviy – ma’rifiy ishlar holati, muammolar, yechimi” mavzusi bo‘yicha, Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektori Bobomuratov Turdikul Akramovichning ma’lumoti axborot va ijro uchun qabul qilinsin (ma’ruza matnda keltirilgan).

1.1.Jismoniy tarbiya va sportni keng targ‘ib etilsin va talabalarning sport bilan shug‘ullanishlari uchun sharoitlar yaratilsin. Sport assotsiatsiyalari (engil atletika va badminton federatsiyasi, futbol, fitnes, kamondan o‘q otish, chim ustida xokkey assotsiyasi) bilan hamkorlik asosida sektsiyalar faoliyati yo‘lga qo‘yilsin.

Mas’ul: Yoshlar masalalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor T.A.Bobomuratov, Sport va madaniyat bo‘limi boshlig‘i Z.B.Fayziev, “Shifokor” sport majmua bo‘limi boshlig‘i Sh.F.Yermatov.

Muddat: 2025-yil iyun-sentabr.

1.2. Yuqori kurs talabalariga biriktirilgan murabbiylar faoliyati samarali tashkil etilsin.

Mas’ul: Yoshlar masalalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor T.A.Bobomuratov, fakultet dekanlari (I.O.Otajonov, A.A.Irnazarov, F.I.Salomova, A.A.Xamrayev, S.U.Aliyev, J.X.Tursunov).

Muddat: 2025-2026 o‘quv yili davomida.

1.3.“Talabaga ko‘mak” shtablarini tashkil etilsin va yangi o‘quv yili uchun 1000 ta yangi **ijara xonadonlarining** manzilli ro‘yxatlarini shakllantirilishini ta’minlansin.

Mas’ul:Yoshlar masalalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor T.A.Bobomuratov, Talabalarni turar joy bilan ta’minlash ishlarini muvofiqlashtiruvchi bo‘lim boshlig‘i A.U.Aliqulov.

Muddat: 2025-yil iyun-avgust.

2.Kun tartibining ikkinchi masalasi “1-Davolash fakulteti hisoboti” mavzusi bo‘yicha 1-davolash fakulteti dekani Otajonov Ilxom Otaboyevichning ma’lumoti qoniqarli deb hisoblansin, axborot va ijro uchun qabul qilinsin (ma’ruza matnda keltirilgan).

2.1.Kafedra majlislarida fanlar bo‘yicha talabalarni o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari muntazam ravishda muhokama qilinishi va monitoringi olib borilishi ta’minlansin.

Mas’ul: O‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i F.X.Azizova, 1-davolash fakulteti dekani I.O.Otajonov, kafedra mudirlari.

Muddat: 2024/2025-o‘quv yili davomida.

2.2.Barcha kafedralardagi yosh pedagoglarni tajribali pedagoglarga biriktirilishi, ularning faoliyati nazorat qilinishi hamda kafedra majlislarida muntazam ravishda muhokama va tahlil qilinishi ta’minlansin.

Mas’ul: O‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i F.X.Azizova, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.

Muddat: doimiy.

2.3.Barcha fakultetlar kafedralarida o‘quv jarayonini zamonaviy darajada va xorijiy

tajribadan kelib chiqqan holda sifatini ko‘tarish maqsadida o‘quv reja, dasturlarni hamda amaliy ko‘nikmalarni qayta ko‘rib chiqilishi va yangilanishi ta’minlansin.

Mas’ul: O‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i F.X.Azizova, 1-son Davolash fakulteti dekani I.O.Otajonov, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.

Muddat: 2024/2025-o‘quv yili davomida.

2.4.Barcha fakultetlartalabalarini Simulyatsion markazda amaliy darslarni tashkillashtirilishi va ko‘nikmalarni puhta egallashlari uchun barcha imkoniyatlar yaratilishi ta’minlansin.

Ma’sul: Fakultet dekanlari, Klinik modellashtirish kafedrasi mudiri D.A.Parpiboyeva, 1-davolash fakulteti dekani I.O.Otajonov, barcha kafedra mudirlari va professor o‘qituvchilar.

Muddat: 2024/2025 o‘quv yili davomida.

2.5. Akademiyaning barcha fakultet kafedralari professor-o‘qituvchilarining ilmiy salohiyatini oshirilishi bo‘yicha monitoringini olib borilishi ta’minlansin.

Mas’ul: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor F.L.Azizova, O‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i F.X.Azizova, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.

Muddat: 2024/2025 o‘quv yili davomida.

2.6. Talabalarni ilmiy-tadqiqot izlanishlarga (to‘garak, olimpiada, konferensiya va boshqa tanlovlarga) jalb etish va saralash natijasida ularni nomdor stipendiyalarga tayyorlash ishlari faollashtirilsin va fakultet ilmiy kengashlarida muntazam ravishda muhokama o‘tqazilsin.

Mas’ul: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor F.L.Azizova, Iqtidorli talabalar bilan ishlash bo‘limi boshlig‘i S.Raximov, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.

Muddat: 2024/2025-o‘quv yili davomida.

2.7. Barcha kafedralarning professor–o‘qituvchilari xo‘jalik shartnomalari, grant loyihalarida faol ishtirok etishlari kuchaytirilsin.

Mas’ul: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor F.L.Azizova, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.

Muddat: 2024/2025-o‘quv yili davomida.

2.8. Akademiyaning bakalavriat va magistratura yo‘nalishlarida ta’lim olayotgan iqtidorli talabalar orasida oliy ta’limdan keyingi ta’lim (magistratura va doktorantura) ni munosib kadrlar bilan boyitish hamda kafedralarda olib qolish maqsadida tashviqot va seleksiya ishlarisamarali olib borilishi ta’minlansin .

Mas’ul:O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i Z.A. Muminova, Iqtidorli talabalar bilan ishlash bo‘limi boshlig‘i S.Raximov, fakultet dekanlari, kafedramudirlari.

Muddat: 2024/2025-o‘quv yili davomida.

2.9. Fakultetlar kafedralarida o‘quv va ilmiy ishlarni yuqori pog‘onaga ko‘tarish va zamonaviy talablarga javob beradigan darajada olib borish maqsadida xorijiy ta’lim muassalari bilan hamkorlikda xalqaro qo‘shma ta’lim dasturlari yaratilishi, magistratura

mutaxassisliklari va malaka oshirish kurslari tashkil etilishi, xalqaro va mahalliy ilmiy loyihalar tanlovida faol qatnashishi, xodimlarni nufuzli xorijiy ta’lim va ilmiy markazlarga stajirovka o‘tash uchun yuborish, shunindek, nufuzli xorijiy o‘quv va ilmiy maskanlaridan akademiyaga professor-o‘qituvchilarni jalb etish ishlari bo‘yicha reja ishlab chiqilsin va amalga oshirilishi ta’minlansin.

Mas’ul: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor F.L.Azizova, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.

Muddat: 2024/2025-o‘quv yili davomida.

2.10. Fanlarga doir yangi darsliklar va o‘quv adabiyotlarni yaratilishi bo‘yicha ishlar jadallashtirilsin.

Mas’ul: O‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i F.X.Azizova, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.

Muddat: doimiy.

2.11. Kafedra bazalarini yangi ochilgan va mavjud davlat tibbiyot muassasalari hamda xususiy sektordagi tibbiyot muassasalari hisobiga ko‘paytirilishi ta’minlansin.

Mas’ul: Davolash ishlari bo‘yicha prorektor M.Sh.Karimov, O‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i F.X.Azizova, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.

Muddat: 2024/2025-o‘quv yili davomida.

3.Kun tartibining keyingi masalasi “Dissertatsiya, monografiya va o‘quv-uslubiy ishlar mavzularini tasdiqlash” bo‘yicha O‘quv-uslubiy bo‘limi boshlig‘i F.X. Azizova va Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i Z.A.Muminova tasdiqlash uchun taqdim etilgan ilmiy mahsulotlar hamda dissertatsiya mavzulari bilan tanishtirdi va tasdiqlash uchun ovozga qo‘yildi.

4.Turli masalalar yuzasidan O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor T.A.Bobomuratov, O‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i F.X.Azizova, Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i Z.A.Muminova, Reja -moliya bo‘limi boshlig‘i O.U. G‘oipov, Ta’lim sifatini nazorat qilish bo‘limi boshlig‘i R.I.To‘raqulovlar so‘zga chiqdilar.

4.1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 22-apreldagi “Tibbiyot sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-149-son qaroriga muvofiq Toshkent tibbiyot akademiyasi, Toshkent pediatriya tibbiyot instituti va Toshkent davlat stomatologiya instituti negizida Toshkent davlat tibbiyot universiteti tashkil etildi.

Universitetga akademik, tashkiliy va moliyaviy mustaqillik berilgan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabrdagi “Davlat oliy ta’lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-60-son hamda 2021-yil 24-dekabrdagi “Davlat oliy ta’lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-61 -son qarorlarida belgilangan qoidalar tatbiq etilishi belgilangan.

Xususan, Prezidentning 2021-yil 24-dekabrdagi PQ-61-son qaroriga muvofiq moliyaviy mustaqillik berilgan davlat oliy ta’lim muassasalariga 2022-yil 1-yanvardan

boshlab ta’lim jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llay oladigan va ilmiy izlanish olib boradigan mahalliy hamda xorijiy professor-o‘qituvchi va mutaxassislarni shartnoma asosida jalb qilish hamda o‘quv-ilmiy jarayonlarga jalb etilgan xorijiy yuqori malakali mutaxassislar mehnatiga haq to‘lash miqdorlarini bozor konyunkturasidan kelib chiqib belgilashga oid qarorlar qabul qilish bo‘yicha mustaqil qaror qabul qilish vakolati berilgan.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 22-apreldagi PQ-149-son qarorida belgilangan topshiriqlarning ijrosini ta’minlash maqsadida Toshkent tibbiyot akademiyasi Ilmiy kengashi qaror qiladi:

1. Universitetning ta’lim jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llay oladigan va ilmiy izlanish olib boradigan mahalliy hamda xorijiy professor-o‘qituvchi va mutaxassislarni keng jalb qilish choralari ko‘rilsin.
2. Universitetning ta’lim jarayoniga jalb etilgan xorijiy professor-o‘qituvchilarning mehnatiga quyidagi miqdorlarda ish haqi to‘lansin:
   - Professor yoki DSc (xorijiy davlatlarning unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalariga) ega bo‘lganda bajargan bir soat o‘quv yuklamasi uchun 50 AQSh doll. miqdorida;
   - Dotsent yoki PhD (xorijiy davlatlarning unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalariga) ega bo‘lganda bajargan bir soat o‘quv yuklamasi uchun 35 AQSh doll. miqdorida;
   - Ilmiy darajaga ega bo‘lmagan xodimlar bajargan bir soat o‘quv yuklamasi uchun 25 AQSh doll. miqdorida.
3. Universitetning boshqaruv tizimini zamonaviy talablar asosida tashkil etish yoki o‘quv, ilmiy-tadqiqot jarayonini rivojlantirish kabi yo‘nalishlar uchun jalb etilgan xorijiy mutaxassislar mehnatiga haq to‘lash miqdorlarini bozor konyunkturasidan kelib chiqib, kelishuv asosida belgilansin.

4.2.Toshkent tibbiyot akademiyasi Yuqumli va bolalar yuqumli kasalliklari kafedrasi mudiri, t.f.d., professor Tuychiyev Laziz Nadirovich rahbarligida “Virus bilan bog‘liq jigarning surunkali shikastlanishlari bo‘lgan bemorlarda ichak mikrob populyatsiyalarining solishtirma tahlili” (“Comparative analysis of gut microbial populations in patients with chronic virus-associated liver diseases”-ingl., “Сравнительный анализ микробных популяций кишечника у пациентов с хроническими вирус-ассоциированными поражениями печени”-рус.) nomli ilmiy loyihasi Innovatsion rivojlanish vazirligiga loyihalar tanlovida qatnashish uchun tavsiya etilsin.

4.3. Toshkent tibbiyot akademiyasi professori Asadullaev Maksud Maxmudovich rahbarligida FM-20230414707 “Qon aylanish kasalliklari (Uyqu va yonbosh arteriyalar aterokaltsinozi) kliniko-biokimyoviy va patogenetik muammolari, nevrologik, kognitiv, suyak bo‘g‘imlari asoratlari, davolash” mavzusidagi grant loyihasining hisoboti Innovatsion rivojlanish agentligiga taqdim etish uchun tavsiya etilsin.

4.4.Toshkent tibbiyot akademiyasining Urologiya kafedrasi professori Sh.I.Giyasov (DSc) rahbarligida AL-592201289-sonli “Bioparchalanuvchi gradient magniy qorishmalaridan tayyorlangan implantatlarni ishlab chiqarish va ishlash samaradorligi”

IJRO.GOV.UZ тизими орқали ЭРИ билан тасдиқланган, Ҳужжат коди: CC42111986

mavzusidagi grant loyihasining yakuniy hisoboti Innovatsion rivojlanish agentligiga taqdim etish uchun tavsiya etilsin.

4.5. Toshkent tibbiyot akademiyasi Jamoat sog‘lig‘ini saqlash maktabi (PhD) dotsenti I.R.Urazaliyeva rahbarligida AL-662205483 “Nogiron bolalar uchun aravacha” mavzusidagi grant loyihasining hisoboti Innovatsion rivojlanish agentligiga taqdim etish uchun tavsiya etilsin.

4.6. Toshkent tibbiyot akademiyasi Reabilitologiya, xalq tabobati va jismoniy tarbiya kafedrasi professori (DSc) G.N.Sobirova rahbarligida IL5221091515-sonli “Post-COVID-19 bilan og‘rigan komorbid patologiyali bemorlarda reabilitatsiya texnologiyasini ishlab chiqish” mavzusidagi grant loyihasining yakuniy hisoboti Innovatsion rivojlanish agentligiga taqdim etish uchun tavsiya etilsin.

Qaror bir ovozdan qabul qilindi va tasdiqlandi. Ilmiy Kengash o‘z ishini yakunladi.

Rektor **Sh.A.Boymuradov**

Ijrochi: G.A.Ismailova
Tel:+998 97 461 80 41